

***Hakimov Rahshod Xolmiratovich***

*Toshkent davlat agrar universiteti assistenti*

***Annatsiya:*** *Ilmiy maqolada pekin karimining kelib chiqishi, ekish muddati, parvarishlash, hosilni yig'ib terib olish jarayoni, karam boshlarni saqlash jarayonlari o'rganilgan. Pekin karamini hosildorligi va yig'ib olish, takroriy ekinda pekin karam boshlarining shakllanishi uzoq davom etishi, shu bois hosil bir necha marotaba, tanlab pishib yetilgan karam boshlarini yig'ib olish, shu bilan bir qatorda pekin karamini omborxonalarda saqlashda eng maqbul harorat va havoning nisbiy namligi aniqlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Pekin karami, karam boshi, barg, ildiz unib chiqishi, urug', ombor, harorat, havoning nisbiy namligi, takroriy ekin.*



Pekin karami (*Brassica pekinensis*) karamguldoshlar oilasiga mansub bir yillik sabzavot ekin turi bo'lib, vatani Xitoy va Yaponiya hisoblanadi. Pekin karamining bandi bo'lmasdan barglari ildiz bo'g'ziga yaqin joyda zich holatda tartib bilan joylashgan bo'ladi.

Pekin karamini karam boshlarining uzunligi 30-45 sm, diametri esa 8-10 sm bo'ladi. Barglarining uzunligi 30-60 sm bo'lib barg qirralari to'liqsimon, barg shapalogi mayin, rangi och yashil, bir oz tukli ko'rinishda bo'ladi. Pekin karami mutadil iqlim sharoitida, yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan hududlarda yaxshi o'sib rivojlanadi. Pekin karami ertapishar bo'lib, urug'idan unib chiqqach, 20-23 kunda barglarini iste'mol qilish mumkin bo'ladi. Asosiy karam boshlarini pishib yetilish darajalari 40-45 kunda barglari, 50-60 kunda asosiy karamboshi pishib yetiladi. Pekin karamining barglari tarkibida 75-80 mg % vitamin S, 6,1-8,6 % quruq moddalar, 1-1,5% qand mavjudligi ilmiy manbalarda keltirib o'tilgan.

O'zbekiston sharoitida pekin karami yozning 2 yarmida yan'ni takroriy ekin sifatida ekiladi va parvarishlanadi, hosildorligi esa 200-300 s/ga bo'lishi mumkin. Hozirda pekin karami issiqxonalarda ham ko'p o'stiriladi, hosildorligi har m<sup>2</sup> da 4-7 kg ni tashkil etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Pekin karamining Xibinskaya navi ko'p ekiladi.

Pekin karamini yetishtirishning siri shundaki, buni boshqa oq bosh karamlarga o'xshab o'rtagi muddatda ekish imkoni yo'q. Agar pekin karami o'rta muddatda ekilganda gulshoxlari rivojlanib karam bosh o'ramaydi. Gul shoxlarini chiqarib yubormasligi uchun erta bahorda yoki yoz oxirida ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yozning ikkinchi yarmi yoki oxirida ekish uchun vaqt belgilashda, ekilayotgan navning pishish muddatiga ham e'tibor qaratish zarur. Shuning uchun yoz oxiridagi ekish muddati hosilni yig'ib olinguniga qadar 50-60 kunning, kechpishar navlarda esa 60-80 kunning tashkil etadi.

Pekin karami yuqori unumdor tuproqlarga ekish tavsiya etiladi. Ushbu pekin karami sovuqqa bardoshlilik bilan ajralib turadi. Urug'lar ochiq maydonga ekilgandan so'ng urug' unib chiqguncha tuproq harorati 21-23 °S bo'lishi talab etiladi. Urug' unib chiqgandan so'ng havo harorati kunduzi -16°S, kechasi - 14°S, keyinchalik 6-7 barg paydo bo'lguncha kunduzi - 20-23°S va kechasi - 16-18°S va barg bandi hosil bo'lishi davrida kunduzi 17-22°S, kechasi - 15-16°S bo'lishi hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Haroratni ko'rtarilishi virus kasalliklarini paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Pekin karami uchun tuproqning maqbul namligi - 80-85 % havoning nisbiy namligi esa - 75-80 % bo'lganda yaxshi natija ko'rsatadi.

Pekin karamini hosildorligi va yig'ib olish, takroriy ekinda pekin karam boshlarining shakllanishi uzoq davom etadi, shu bois hosil bir necha marotaba, tanlab pishib yetilgan karam boshlari yig'ib olinadi. Hosil pishib yetilish davrida birinchi yig'im terim vaqti oktabr oyining uchunchi dekadasida o'tkaziladi. Hosilni yig'ib olish 2-3 marta takrorlanadi va u noyabr oxirigacha davom etadi. Karam boshlarini uzishda poyaning biroz qismi boshda qoldiriladi. Tovar bop karam boshlar qadoqlash qutilariga bir qator qilib joylanadi. Takroriy muddatda

ekilgan pekin karamidan barcha o'simliklar bosh hosil qilishga ulguradi. Karam boshining diametri 4,5-5,5 sm bo'lgan o'simliklarni yetiltirib olish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda pekin karamini hosili bir muddatda pishib yetilishini inobatga oladigan bo'lsak karam boshlarini saqlashni sifatli saqlash muhim omil hisoblanadi. Pekin karamini saqlashda ularning pishib yetilish darajasi va ularni saqlash davomida saqlash omborxonasidagi harorat va havoning nisbiy namligi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda saqlanadigan karam boshlari zich hamda yangi barglaridan iborat bo'lishi zarur bo'ladi. Karam boshlarini saqlashga joylashtirishdan oldin saralash ishlarini amalga oshirish zarur bo'ladi. Texnik shikastlangan va biologik zararlangan karamboshlar odatda saqlashga qo'yilmaydi. Pekin karamini poletilen qopgichlarga o'ralgan holda muzlatgichlarda saqlash, mahsulotni saqlanish muddatini birmuncha uzaytirishga sabab bo'ladi.

Pekin karamini saqlashda xarorat  $-3+3$  °S darajada ushlab turilganda 10-15 kun,  $0+2$  °S darajada 3 oy muddat davomida saqlash mumkin bo'ladi. Pekin karamini saqlash davomidagi xarorat  $+4$ °S darajadan yuqori bo'lishi mahsulot sifatini qisqa muddatda buzilishiga sabab bo'ladi. Pekin karamini saqlashda havoning nisbiy namligini o'zgaruvchanligiga katta e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Saqlash davomida havo namligi 92 % dan kam bo'lishi, karam boshining barglarni tez quritib qo'yadi va mahsulot uzoq muddat saqlanmasligiga olib keladi. Shunga ko'ra pekin karamini saqlashda omborxonadagi havoning nisbiy namligi 96-98 % havo harorati  $+1-2$  °S bo'lishi talab etiladi.

**Xulosa:** Pekin karamini O'zbekiston sharoitida asosan takroriy muddatda ekilgan karamdan yuqori hosil olish imkoni mavjud bo'lib yetishtirilgan hosilni omborda saqlashda havo harorati  $+1-2$  °S havoning nisbiy namligi 96-98 % bo'lganda pekin karami boshlari 2,5-30 oyga saqlash imkoni mavjud bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ш.И.Асатов, В.И.Зуев, Р.Ф.Мавлянова. Китайская листовая капуста и основные элементитехнологии выращивания ее в Узбекистане.

2. Asatov S. H. et al. Agro-climatic conditions of Uzbekistan and their compliance with the requirements of Chinese kale //YE3S Web of Conferences. – EDP Sciencies, 2021. – T. 244. – S. 02023.
3. Xurramov U.,Asatov S'h.,Xasanov A. The importance of lettuce (*Lactuca sativa var. capitata*) and growing suggestions. International yengineering journal for Researingh and development. 2020. – R. 1-5